

Dastlabki ma’lumotlar

## 2023– yilning yanvar– mart oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2023– yilning yanvar–mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 1338,1 mlrd. so‘mni yoki 2022– yilning mos davriga nisbatan 102,4 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 1205,1 mlrd. so‘mni (102,4 %), o‘rmon xo‘jaligi – 118,5 mlrd. so‘mni (102,2 %), baliqchilik xo‘jaligi – 14,5 mlrd. so‘mni (107,6 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Qoraqalpog‘iston Respublikasining ulushi 3,3 % ni tashkil etdi.



1338,1

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so‘m




01 1205,1 Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar


02 118,5 O‘rmon xo‘jaligi

03 14,5 Baliqchilik xo‘jaligi

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘shish sur‘ati**




**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi (% da)**



2023– yilning yanvar–mart yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 94,6 % – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 8,8 % – o‘rmon xo‘jaligi, 1,1 % – baliqchilik xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.


### **Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi**



2023– yilning yanvar–mart oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Amudaryo (216,4 mlrd. so‘m) va Chimboy (156,7 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Mo‘ynoq tumani (17,5 mlrd. so‘m) va Nukus shahrini (14,2 mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Qoraqalpoqiston Respublikasi ko‘rsatkichidan (102,4 %) yuqori o‘sish sur‘atlari Taxiyyatosh (121,0 %), Bo‘zatov (120,6 %) Mo‘ynoq (115,5 %), Nukus (112,9 %), Qorao‘zak (109,1 %), Qonliko‘l (105,6 %), Amudaryo (104,2 %), Chimboy (103,8 %), Xo‘jayli (103,2 %) va Shumanay (103,0 %) tumanlarida kuzatildi, To‘rtko‘l (96,1 %), Qo‘ng‘irot (92,9 %) tumanlarida va Nukus (76,9 %) shahrida esa aksincha o‘sish sur‘atlari pastligi kuzatildi.

## Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining o‘sish sur‘ati




### Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2023– yilning yanvar– mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 1181,1 mlrd. so‘mni yoki 2022– yilning mos davriga nisbatan 102,3 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 103,5 mlrd. so‘mni (95,7 %), chorvachilik mahsulotlari – 1077,5 mlrd. so‘mni (102,9 %) tashkil qildi.


### Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi

**8,8 %**  
Dehqonchilik  
mahsulotlari



**91,2 %**  
Chorvachilik  
mahsulotlari

**Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (% da)**




■ Dehqonchilik mahsulotlari ■ Chorvachilik mahsulotlari

**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi**



Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 85,2 % – dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, 12,4% – fermer xo‘jaliklariga, 2,4 % – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

**Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (% da)**



2023- yilning yanvar–mart oylari yakuniga ko‘ra ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Amudaryo (19,1 %) va Taxiatoş tumanlarida (18,1 %), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Bo‘zatov (95,6 %) tumanida, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Mo‘ynoq (12,8 %) tumanida qayd etildi.


Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Bo‘zatov tumanida (3,9 %), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng kam ulushi Mo‘ynoq tumanida (70,2 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Chimboy tumanida (0,2 %) qayd etildi.

## Dehqonchilik


2023– yilning yanvar–mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 103,5 mlrd. so‘mni yoki 2022– yilning mos davriga nisbatan 95,7 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 8,8 % ni tashkil qildi.

## Sabzavotlar


Hajmi, tonna



O'sish sur'ati, % da



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023– yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 247 tonna sabzavotlar (2022– yilning yanvar– martiga nisbatan 39,5 %) ishlab chiqarildi. Sabzavot yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 52,2 % dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



Qoraqalpog‘iston Respublikasi  
bo‘yicha **sabzavotlar**  
yetishtirish hajmi, tonna






## Chorvachilik



2023– yilning yanvar– mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 1077,5 mlrd. so‘mni yoki 2022– yilning mos davriga nisbatan 102,9 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 91,2 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha choratadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2023– yilning yanvar– mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 16,4 ming t. go‘sh (2022– yilning yanvar – martiga nisbatan 3,0 % ga ko‘p), 53,7 ming t. sut (3,5 % ga ko‘p), 81,1 mln. dona tuxum (1,0 % ga ko‘p), 22,8 ming dona qorako‘l teri (90,9 %) ishlab chiqarildi va 766 tonna baliq (118,4 %) ovlandi.

**Go’sht (tirik vaznda)**


**Hajmi, tonna**



**O’sish sur’ati, % da**



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo’jalik toifalari bo’yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo’jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo’jaliklari**
- **Qishloq xo’jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023– yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo’jaliklar tomonidan tirik vaznda 16,4 ming t. go’sht (2022– yilning yanvar –martiga nisbatan 3,0 % ga ko’p) ishlab chiqarildi. Go’sht ishlab chiqarish ko’rsatkichlari xo’jaliklar toifalari bo’yicha tahlil etilganda, go’sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 94,9 % dehqon va tomorqa xo’jaliklari hissasiga to’g’ri kelganini qayd etish zarur.




Qoraqalpog'iston Respublikasi  
bo'yicha **go'sht (tirik vaznda)**  
yetishtirish hajmi, tonna




## Sut


**Hajmi, ming t.**



**O'sish sur'ati, % da**



**Ishlab chiqarilgan  
mahsulotning xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023–yilning yanvar– mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 53,7 ming t. sut (2022–yilning yanvar– martiga nisbatan 3,5 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 89,5 % dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Qoraqalpog'iston Respublikasi  
bo'yicha ishlab chiqarilgan  
**sut** hajmi, tonna




## Tuxum


**Hajmi, mln. dona**



**O'sish sur'ati, % da**



**Ishlab chiqarilgan  
mahsulotning xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023–yilning yanvar– mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 81,1 mln. dona tuxum (2022–yilning yanvar– martiga nisbatan 1,0 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 90,0 % dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




Qoraqalpog'iston Respublikasi  
bo'yicha olingan **tuxum**  
hajmi, ming dona




## Baliq


**Hajmi, t.**



**O'sish sur'ati, % da**



**Ishlab chiqarilgan  
mahsulotning xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi**



● Fermer xo'jaliklari


● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2023– yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 766,3 t. (2022– yilning yanvar–martiga nisbatan 118,4 %) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 49,4 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.






Qoraqalpog'iston Respublikasi  
bo'yicha ovlangan **baliq**  
hajmi, tonna



## Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2023– yining 1– aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 4,9 % fermer xo‘jaliklari hissasiga, 94,0 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 1,1 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 11,4 % fermer xo‘jaliklariga, 86,3 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 2,3 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi, otlar umumiy sonidan 21,8 % fermer xo‘jaliklariga, 75,0 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 3,2 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 7,2 % fermer xo‘jaliklariga, 84,2 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 8,6 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.


2023–yilning 1–aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1184 ming taga yetdi. 2022–yilning 1–aprel holatiga solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni –23,7 ming taga (2,0 %) ko‘paydi.

### Yirik shoxli qoramollar


**Soni, ming bosh**



**O‘sish sur‘ati, % da**



**Bosh sonining  
xo‘jalik toifalari  
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023–yilning 1–aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 94,0 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.




Qoraqalpog‘iston Respublikasi  
bo‘yicha **yirik shoxli**  
**qoramollarning** umumiy  
bosh soni, *ming bosh*




2023– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 342,4 ming taga yetdi. 2022– yilning 1– aprel holatiga solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni – 7,5 ming taga (2,2 %) ko‘paydi.

### Sigirlar


**Soni, ming bosh**



**O‘sish sur‘ati, % da**




**Bosh sonining  
xo‘jalik toifalari  
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, sigirlarning bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 92,5 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.




Qoraqalpog'iston Respublikasi  
bo'yicha **sigirlarning**  
umumiy bosh soni,  
*ming bosh*




2023– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 1179,3 ming taga yetdi. 2022– yilning 1– aprel holatiga solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni – 15,2 ming taga (1,3 %) ko‘paydi.

### Qo‘y va echkilar


**Soni, ming bosh**



**O‘sish sur‘ati, % da**



**Bosh sonining  
xo‘jalik toifalari  
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 86,3 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Qoraqalpog'iston Respublikasi  
bo'yicha **qo'y va echkilarning**  
umumiy bosh soni,  
*ming bosh*







2023– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni- 26055 taga yetdi. 2022– yilning 1– aprel holatiga solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni – 613 taga (97,7 %) kamaydi.

### Otlar


**Soni, bosh**



**O‘sinh sur‘ati, % da**



**Bosh sonining  
xo‘jalik toifalari  
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlarning 75,0 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.




Qoraqalpog'iston Respublikasi  
bo'yicha **otlarning**  
umumiy bosh soni, bosh




2023– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni – 4732,4 ming taga yetdi. 2022– yilning 1– aprel holatiga solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 88,6 ming taga (98,2 %) kamaydi.

### Parrandalar


**Soni, ming bosh**



**O‘shish sur‘ati, % da**




**Bosh sonining  
xo‘jalik toifalari  
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 75,0 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Qoraqalpog'iston Respublikasi  
bo'yicha **parrandalarning**  
umumiy bosh soni,  
ming bosh



Qishloq xo'jaligi va ekologiya  
statistikasi bo'limi

• 61-222-76-07  
• 61-224-93-11